



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2026-yil 18-aprel

96-5-0-Q/26

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi “Startaplarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-son qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, startap loyihalarni g‘oyadan boshlab masshtablashtirishga bo‘lgan barcha bosqichlarda institutsional, moliyaviy va infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R. Sulaymonovning 8-apreldagi 186/16-26-sonli bildirgisini inobatga olib

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi “Startaplarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

2030-yilga qadar startap ekotizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilab berilganligi;

startap g‘oyani shakllantirish, loyihani ishlab chiqish, ishga tushirish hamda masshtablashtirishni o‘z ichiga qamrab oluvchi to‘rt bosqichli startap ekotizimi joriy etilganligi;

2026-2027-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlari o‘quvchilari hamda umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining 9-11-sinf o‘quvchilari uchun har oyda kamida ikki marotaba startap g‘oyalarni yaratishga o‘rgatuvchi “Mohirlik va biznes soati” tadbirlari o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilganligi;

2026-yildan boshlab har yili startap loyihaga aylantirish salohiyati yuqori bo‘lgan g‘oyalarni aniqlash bo‘yicha “Eng innovatsion g‘oya” respublika tanlovi o‘tkazilishi belgilanganligi;

2026-yildan boshlab har yili yoshlarning eng yaxshi biznes va startap loyihalarini aniqlash va rag‘batlantirish bo‘yicha “Yosh tadbirkorlar” chempionati o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilganligi;

To‘rt bosqichli startap ekotizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyatda ilovaga muvofiq “Startaplar klubi” tashkil etilsin.

“Startaplar klubi”ga startap tashabbuskorlari bilan davra suhbatlari tashkil qilish, davlat organlari bilan yuzaga kelgan muammoli masalalar bo‘yicha amaliy ko‘mak ko‘rsatish hamda ushbu hududdagi yirik tadbirkorlik subyektlarini startap loyihalarga biriktirish vazifalari yuklanganligi inobatga olinsin.

4. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R. Sulaymonov), Savdo-sanoat palatasining viloyat boshqarmasi (D. Shakarov) startaplar klubida startaplar hamda mas‘ul idoralar bilan birgalikda doimiy davra suhbatlari tashkil qilib borsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul etib viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R. Sulaymonov, Savdo-sanoat palatasining viloyat boshqarmasi boshlig‘i D. Shakarov hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Sh. Jumayev belgilansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimining
2026-yil 18-apreldagi
96-5-0-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**“Startaplar klubi
TARKIBI**

T/ p	Korxonasi nomi	STIR	Rahbari (F.I.Sh) aloqa uchun telefon raqami	Faoliyat yo‘nalishi (sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish)	Ro‘yxatdan o‘tgan sana
Navoiy viloyati hokimi N.Tursunov – Startaplar klubi rahbari					
1	“Grand Farm Avitsenna” MCHJ	302772050	Karimov G‘olibjon Orifovich 90 500 22 22	Sog‘liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat (Xizmat ko‘rsatish)	17.12.2013 y
2	“Navoiy Osiyo” XK	305109720	Berdiyeva Gulchehra Sobirovna 94 647 80 08	Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar (Xizmat ko‘rsatish)	26.10.2017 y
3	"Telecom Devices Pro" MCHJ	302236108	Raximov Nodir Maxmudovich 97 716 07 70	Elektr asboblari ishlab chiqarish	14.03.2012 y
4	"Karmana Alfa Gaz Service" MCHJ	302189830	Murodov Yusup Hamroyevich 91 330 71 71	Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	27.01.2012 y
5	"Karmana Shox Trans" MCHJ	303503637	Axmedov Asqar Mustapoyevich 97 228 22 52	Avtomobil transportida yuk tashish (Logistika)	27.11.2015 y
6	"Gazgan Marble Group" MCHJ	304535880	Djumayev Jamshid Toshpulatovich 99 525 20 70	Toshni kesish, ishlov berish va pardozlash	13.01.2017 y
7	"Oq Oltin XXI Ars" MCHJ	203880268	Mamedov Xoji Naliquliyevich 97 320 24 42	Turar joy binolarini qurish	06.02.2002 y
8	"Ihlas Elektrik" MCHJ	304980962	O‘Rinov Mexriddin Ramazonovich 90 500 44 40	Elektr yoritish uskunalari ishlab chiqarish	11.07.2017 y
9	"Biznes Fundament" MCHJ	303244825	Xaydarov Otobek Xikmatulloevich 93 310 00 07	Avtomobil transportida yuk tashish	05.03.2015 y
10	"Favorit Lyuks Servis" MCHJ	302590738	Salomova Zilola Rustamovna 91 337 00 02	Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojniy ishlab chiqarish	25.04.2013 y

11	“Alisher Quruvchi Servis” XK	302879597	Saidov Shonazar Shomurodovich 90 619 05 93	Turar joy binolarini qurish	24.03.2014 y
12	“Elite Kids” MCHJ	305911555	Narziyeva Gulshan Komilovna 90 732 66 22	Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	19.12.2018 y
13	“Inno Sanjar” MCHJ	308129590	Sattorov Sanjar Hasan o‘g‘li 97 002 44 26	Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	28.01.2021 y
14	"Navoiy Tinch Tekstil" MCHJ	303770955	Xalikov Jo‘rabek Istamovich 91 986 30 00	Turar joy binolarini qurish	02.02.2016 y
15	"Golden Meva Sabzavot Klaster" MCHJ	307259154	Sharipov Ismoil Zaripovich 93 437 09 00	Kraxmal va inulinga boy ildizmevali ekinlar va ularning urug‘larini etishtirish	26.03.2020 y
16	"Registon" XK	201591430	Turdiyev Faxriddin Jurakulovich 91 337 06 09	Ixtisoslashgan do‘konlarda motor yoqilg‘isi chakana savdosi	09.01.1996 y
17	“Zarafshon Golden Group” MCHJ	300066115	Bozorov Fozili Odilzoda 94 226 91 19	Turar joy binolarini qurish	29.11.2006 y
18	"Nurli-Autsorsing" MCHJ	306997069	Islomov Iskandar Fayzullayevich 95 073 02 73	Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	06.01.2020 y
19	"Sarvarbek Sanjar Xondamir" MCHJ	301486669	Saydaxmedov Orifjon Saydaxmedovich 91 333 49 44	Qorako‘l zotli qo‘ylarni ko‘paytirish	08.02.2010 y
20	“Al-Aziz-Ipagi” MCHJ	305250864	Rajabova Jumagul Maxmudovna 99 336 43 00	Jun tolalarni tayyorlash va yigirish	26.01.2018 y